

CH₃

LOREM IPSUM

LOREM IPSUM

ISSN: 2181-3310

MUTAFAKKIR

Scientific Journal / Научный журнал / Илмий журнал

№ 29, Oktyabr (2024)

29-son

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Bosh Muharrir:
SHOHINUR
MIRZAYEV

Tahrir hay'ati

Dilmurod Muhammadiyev
Baxtinur Xudanov
Akbar Elmurodov
Shuhrat Ziyadullayev
Muxtor Xudoyqulov
Ulug'bek Vohidov
Murod Abulkasimov
To'rayev Laziz Abdivali
O'g'li

ALISHER NAVOIY
NOMIDAGI O'ZBEKISTON
MILLIY KUTUBXONASI

Kitob va turkum
nashrlarga ISBN va ISSN
raqamlarni biriktirish
to'g'risida

MA'LUMOTNOMA

Turkum nashrlarning
chiqish ma'lumotlarini GOST
7.4-95 «Nashrlar. Chiqish
ma'lumotlari» hamda GOST
7.56-2002 «Xalqaro standart
turkum raqami» davlatlararo
standartlar talablari asosida
bo'lishini to'liq ta'minlash
maqsadida, Alisher Navoiy
nomidagi O'zbekiston Milliy
kutubxonasi va «Mutafakkir»
1ta 2022 yil 11-apreldagi
№ ISSN-C-35583 sonli
hisob-kitob shartnoma va
2022 yil 19-aprel yildagi №
ISSN-I-35583 schet-fakturaga
asosan turkum nashrlarini
ISSN bilan belgilash uchun
quyidagi raqamni taqdim
etadi:

Turkum nashrning nomi:
Мутафаккир
ISSN raqam: 2181-3310
Turkum nashrlarning turi:
электрон нашр

Ushbu jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining ilovasida mavjud bo'lgan xalqaro indeksatsiya **index copernicus** bazasiga kiritilgan. OAK ilmiy nashrlarda chop etilgan maqola sifatida qabul qilinadi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati

¹ Мақола chop etilgan paytda xalqaro miqёsda faoliyat kўrsatadigan қуйидаги йирик нашриётлар ёки маълумотлар базаси асосида «импакт-фактор»га эга бўлган илмий журналларда нашр этилган мақолалар мазкур Рўйхат таркибига киритилган илмий журналларда chop etilgan илмий мақолалар сифатида қабул қилинади: (1) Web of Science (Web of Knowledge), (2) Journal Impact Factor, (3) Scopus, (4) Journal Citation Reports, (5) Global Impact Factor, (6) International Impact Factor Services, (7) Agris, (8) Chemical Abstracts CAS, (9) GeoRef, (10) PubMed, (11) Springer, (12) Index Copernicus, (13) Bielefeld Academic Search Engine, (14) ResearchBib, (15) Directory of Research Journals Indexing, (16) Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor, (17) Open Academic Journals Index, (18) Ulrich's Periodicals Directory, (19) Scientific Indexing Services, (20) General Impact Factor, (21) InfoBase Index, (22) International Society for Research Activity, (23) Scientific Journal Impact Factor, (24) Scientific Research Publishing Inc, (25) Directory of Open Access Journals, (26) Academic Journals Database, (27) Academic One File, (28) Advanced Science Index, (29) Anthropological Index Online, (30) Anthropological Literature, (31) Anthropology Plus, (32) Asian Education Index, (33) Bibliography of Asian Studies, (34) Compendex, (35) CrossRef, (36) HINARI, (37) Hindawi, (38) Libraries Resource Directory, (39) Impact Factor Search, (40) ResearchGate, (41) SCImago, (42) Scisearch, (43. z/x) Universal Impact Factor.

Шунингдек, жаҳоннинг икки юзта энг яхши олий таълим муассасаси рўйхатидаги олий таълим муассасалари томонидан chop etilgan илмий ишлар ва мақолалар тўпламида нашр этилган илмий мақола (материал)лар мазкур рўйхатга киритилган илмий нашрларда chop etilgan мақолалар сифатида қабул қилинади.

**Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy
meros ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy
xodimi Hikmatilla Gadayev**

Annotatsiya: Maqolada nomoddiy madaniy merosning An'anaviy hunarmandchilik yo'nalishida sozgarlik sohasining paydo bo'lishi, bu haqda arxeologik topilmalar, cholg'u sozlarining takomillashib borishi haqida misollar keltiriladi. Maqola Amir Temur hukmronligi davrida ijod ahliga e'tibor, keyingi asrlarda sozgarlikning jadal rivoji, Usta Usmon Zufarov ijodi va sozlarning yasaliish to'g'risida ma'lumotlar bilan boyitilgan.

Katit so'zlar: Arxeologik, ritm, burg'u, shohrud, chang, ud, barbad, anqo, sanj, rubob, rud, arg'anun, nay, mizmor, surnay, juljul, jom, bong, mi'zafa, daf, cholg'u diapazoni, sato

Аннотация: В статье представлены примеры зарождения сферы музыкального инструментостроения в направлении традиционных ремесел нематериального культурного наследия, археологических находок, совершенствования музыкальных инструментов. Статья обогащена сведениями о творческих людях периода правления Амира Темура, развитии приборостроения в последующие столетия, творчестве мастера Усмана Зуфарова и создании музыки.

Ключевые слова: Археологический, ритм, бургу, шахруд, чанг, уд, барбад, анко, сан-дж, рубоб, руд, арганун, най, мизмор, флейта, джуджул, джом, бонг, мизафа, даф, диапазон инструментов, сато.

Abstract: The article presents examples of the emergence of the musical instrument-making sphere in the direction of traditional crafts of intangible cultural heritage, archaeological finds, and the improvement of musical instruments. The article is enriched with information about creative people during the reign of Amir Temur, the development of instrument-making in subsequent centuries, the work of master Usman Zufarov and the creation of music.

Keywords: Archaeological, rhythm, burgu, shahrud, chang, ud, barbad, anko, sanj, rubob, rud, arganun, flute, mizmor, trumpet, juldjul, jom, bong, mizafa, daf, range of instruments, sato.

Nomoddiy madaniy merosning an'anaviy hunarmandchilik yo'nalishida sozgarlik sohasi a'lohida o'rin tutadi. Avvalo sozgarlik deganda hunarmandchilik sohalaridan biri, cholg'u asboblari yasash san'atini tushiniladi. Ushbu soha qadim sohalardan biri bo'lib, uning tarixi uzoq asrlarga qadaladi. Ilk musiqa asboblari inson hamda uni o'rab turgan atrof tabiatdagi tovushlarga, qushlarning sayrashi, suvlarning shildirab oqishi, baland-past tovushlari, bir hil ritmdagi qadam tovushlari, shamol tovushlari va boshqa tovushlarga taqlid qilish, ularga o'xshatib tovush chiqarishga harakatlar natijasida yuzaga kelgan, yaralgan. Ov yoki mehnat davomida bir-biriga xabar berishlar, biror hodisadan ogohlantirishlar, yirtqich hayvonlarni qo'rqitish davomida nog'oralar, hayvonlar shohidan yasalgan burg'ular yaraldi.

Arxeologlarimizning izlanishlarida Farg‘ona vodiysidagi Kattakamar g‘orida topilgan (mil.av) III ming yilliklarga oid devoriy rasmlarda qo‘lida doira ushlab turgan odam surati topilgan. O‘z navbatida o‘sha vaqtlardayoq insonlar musiqani idrok etgani va musiqa asbobi yaralganidan dalolat beradi. Munchoqtepa arxeologik qazimshmalarida ham (V-VI asrlar) topilgan musiqa asboblari ham bunga misol bo‘la oladi. Qadimda vafot etgan odam bilan birga uning kasb-koriga tegishli maxsus ish qurollari ham ko‘milgan. Mana shunday topilmalar orasida musiqa asbobi ham bo‘lib, u silindir shaklidagi yog‘och qolipga solingan ikkita aynan bir-xil naydan iborat bo‘lgan. Nayning bir uchi tabiiy to‘silgan, ikkinchi tarafga tilcha uchun maxsus teshik qilingan. Har-bir nayning ustida oltitadan aylana shakldagi teshiklar mavjud bo‘lib, nay oxiriga tomon ularning diametri ortib boradi. Bu, fikrimizcha, qo‘shnay musiqa asbobidir. Afrsiyob topilmalaridagi devoriy rasmlari orasida esa, qo‘lida ud (borbad) sozini ushlab turgan musiqachi tasvirlangan. Bu soz mil.av. VI chi asirda yaratilganligi aytiladi. Mazkur sozning yonidan keyinchalik afg‘on rubobi, tanbur va dutor joy olgan. Sosoniylar davriga oid (V-VI asrlarda) yozma manbalarda musiqa asboblari to‘g‘risida ko‘plab misollar keltirilgan. Xisrav Qavaton kitobida nay, ud, hind udi, chang, rubob, g‘ijjak va boshqa torli cholg‘ular hamda doiraning tarifi, ularning tuzilishi, foydalanish, musiqada tutgan o‘rni xaqida batafsil ma‘lumotlar berilgan. Yuqorida aytganimiz, munchoqtepa qazilmalarida topilgan qo‘shnayni misol qilganimizda bundan oldin yoki shuning qatorida puflama cholg‘u sozlari, nay, surnay, karnaylar ham sozlar

qatoridan o‘rin olganiga iqror bo‘lamiz. Avvalo soz cholinmasa, sozgarlik sohasi rivojlanmagan bo‘lardi. Sohaning rivojlanishida IX-X asrlar a‘lohida o‘rin tutadi. Aynan mana shu davrda kasbiy musiqa qatlami yuksalgan, musiqa ilm-fan sifatida shakllangan, mumtoz musiqiy qadriyatlar, bir turli janrlar, maqomlar tizimi qaror topa boshalagan. O‘rta asrning buyuk mutaffakkiri-Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Al Xorazmiy ham asarlarida sozgarlik, musiqashunoslik san‘ati xaqida o‘z fikrlarini yoritib kelishgan. Hususan, Abu Abdulloh al Xorazmiyning “Mafotih ul-udum” qomusi, Abu Nasr Farobiyning “Kitab ul-musiqa al-kabir”, hamda Ibn Zaylaning “Kitab ul kafi fil-musiqa” ilmiy asarlarida o‘sha davrlar musiqa amaliyotida sozandalar tomonidan qo‘llanib kelingan cholg‘u asboblari, tanbur, shohrud, (qadimgi changsimon ko‘p torli cholg‘u-forscha shoh daryosi) chang, ud , barbad, (qadimgi arfa) anqo, sanj, rubob, rud, arg‘anun, nay, mizmor, (damli cholg‘u) surnay, juljul, jom, bong, mi‘zafa, daf,(doirasimon cholg‘u) tabl kabi ko‘plab sozlar tavsif etiladi. Kasbiy musiqachilarning sozlari hisoblangan murakkab ko‘rinishli ushbu mukammal cholg‘ular mumtoz musiqa ijrochiligi qay darajada rivojlanishini ko‘rsatish bilan birga amaliy san‘at sohasining riyoziy fanlar bilan bir nuqtada kesishgan qirralarini ham namoyon etgan. Chunki, ko‘plab torli chertma cholg‘ularining pardalari aniq o‘lchamda hisoblar asosida uyg‘un tizib chiqilishi lozim bo‘lgan va sozgardan yuksak bilim hamda iqtidorni talab qilgan. Har bir sozning o‘lchami, uning pardalarini boylanishi, kichik va katta xarraklargacha bo‘lgan oraliqdagi aniq o‘lcham, sozga tortiladigan torlarning (ipak ip yoki, sim) bir-biridan farqi , sozning qozon qismiga qoplanadigan teri yoki yog‘och qoplama, uni chertishda ishlatiladigan nohin, sozning torlarini ushlab turuvchi quloqlarini o‘ta nafislik bilan puxta ishlanganligi, har-bir detalning matematik jixatdan to‘g‘ri ishlash sozning bekamuko‘stligini ta‘minlagan.

Mamlakatda tinchlik va osoyishtalikning hukmronligi ilm-fan, iqtisodiyot, madaniyat va san‘atning rivojlanishiga albatta katta ta‘sir ko‘rsatadi. Bobomiz Amir Temur davlatni boshqargan davrni bunga yorqin misol qilib ko‘rsatish mumkin. Amir Temur uzluksiz jang va

safarlarda bo'lsada, mamlakatning poytaxti Samarqandning obodligiga doim e'tiborli bo'ldi. Mamlakat ichkarisidan va qo'shni o'lkalardan ilm-fan va san'at ahlini, yuksak istedadli ijodkorlarni, hunarmandlarni, me'mor ustalarni poytaxtga taklif qilib, ularning istedadini, ijodini rivojlantirish va targ'ib qilishlariga keng imkon yaratib berdi. Saroyda ilm ahli bilan bir qatorda istedadli sozandalar, hofizlar, bastakor va raqqosalar ham o'rin oldi. "Temur tuzuklari"da "O'ninchi toifa hunar-san'at egalaridir, ularni davlathonaga keltirib, o'rdadan shirinlar belgilangan" ligi aytiladi. XVII asrda yashagan tarixchi Darvesh Ali Samarqandda yashab ijod etgan musiqa olimi va nazariyotchisi Xo'ja Abdulqodir Amir Temur tomonidan Samarqandga olib kelinganligi va u poytaxtda saroy teatri va musiqa jamoasini boshqarganligi aytiladi. Musiqashunos olimning bizgacha

"Zubdat ul atvor", "Maqsud ul-ilhon", "Miatayn" kabi asarlari yetib kelganligi ma'lum. Manbaashunoslarimiz tomonidan o'sha davrning eng arzirli bastakor sozandalaridan Sayfiddin va Qutbi Naiylar nomi tilga olinadi. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrning boshida Samarqandda musiqa, raqs va tomosha san'atining jonlanishi, shuningdek temuriylar davrida Samarqanddagi xalq sayillari va tomoshalar xaqida Sharofiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Ispaniya elchisi Klavixo kabi o'sha davrning muarrixlari yozib qoldirishgan. Sharofiddin Ali Yazdiy 1404-yili Amir Temur Hindiston safaridan qaytishi munosabati bilan Siyob bo'yidagi Konigal maydonida o'tkazilgan va minglab odamlar ishtrok etgan sayl xaqida ajoyib ma'lumotlarni qoldirgan. Yana bir hayratlanarlisi Amir Temur davrida xarbiylar orkestri tashkil etilgan bo'lib, unda ko'p nog'ora, dovul, karnay - surnay va burg'udan keng foydalanilgan. Poytaxtning bosh darvozahonasi ustida maxsus musiqa honasi-nog'orahonaga ajratilgan. Yuzlab nog'ora, yuzlab karnay, yuzlab burg'u cholg'ulari bilan ijro qilingan jangovor chaqiriqlar - askarlarning jangovor ruhini oshirishda hizmat qilgan. Burg'u asbobi esa Bobur qo'shinlarining ramzi sifatida Hindiston madaniyatiga ham kirib bordi. Mavzuimizda sozgarlik xaqida, sozlar xaqida gap getar ekan, bu yerda sozandaning ham o'rni beqiyosligini takidlash o'ta muhim. Sozgarlik sohasini rivojlanib borishi mukammallashishi, rang-barangligini ortib borishi, sifati, tayyorlanish texnologiyasi, qulayliklari va provard natijada sifatli sozning paydo bo'lishida albatta sozanda tengma-teng rol o'ynaydi. Sozning yaxshi va noqulay tomonlarini faqat mukammal sozandagina aniqlab bera oladi.

Zamon talabiga mos musiqa asboblari XV asrdan boshlab, yangi musiqiy janrlarning va cholg'u musiqalarining rivojlanishi bilan qaror topa boshladi. Bu cholg'u asboblarning aksari qismi qadimgi xalq sozlarining takomillashtirilishi va tashqi ko'rinishining o'zgartirilishi bilan yuzaga keldi. O'z navbatida sozgarlik mahoratining o'sishi, rivoj topishi musiqashunoslik ilmining taraqqiy etishiga va o'sishiga ham keng imkoniyatlar yaratdi. Cholg'ularni zamonaviy ijrochilik talab darajasiga moslashtirishning ilk tajribalari XX asrning XX yillariga va XXX yillar boshlariga to'g'ri keladi. Bu g'oyani birinchi bo'lib toshkentlik mashhur san'atkor, hofiz Shorahim Shoumarov, toshkentlik mashhur sozgar usta Usmon Zufarov, xorazmlik ustoz Matyusuf Harratov amalga oshirgan. Ularning vazifalari musiqiy sozlarning ovoz jarangdorligini oshirish va pardalar yordamida cholg'u diapazonini (eng past tovushdan eng yuqori tovushgacha bo'lgan oraliq) kengaytirishdan iborat bo'lgan. Laboratoriyada sozgarlik bo'yicha ustalar tayyorlash jarayoni ham olib borilib, yurtimizdagi malakali ustalar jalb qilindi. Shuning bilan Sozgarlik san'atining sir-asrorlari o'rganildi, sozlarni yasash, ta'mirlash, davom ettirish bo'yicha ustachilik maktabiga asos solindi. Milliy cholg'u sozlari millat ruhiyati,

ma'naviyati, san'ati va madaniyatining ko'zgusi, shunday ekan, har bir sozni tayyorlashda

ustadan katta ma'suliyat bilan yondashishni talab qiladi.

Bugungi mukammal rivojlangan sozgarlikning qadimida ilk tamal toshlarini qo'yishda tut daraxti juda muhim rol o'ynagan. Oddiygina ro'zg'or buyumlari, beshik, keli, kelisop, kuvi, sandiq, quti, taroq, urchuq, egar yasashdan boshlab, murakkab to'quv dasgohlari va sozlar yasashga o'tilgan. Va tajribalar natijasi o'laroq soz yasash uchun eng yaxshi xomashyo-tut daraxti ekanligi o'z isbotini topdi. Zamonamizning sozgar ustalari ham milliy sozlarni aksarini tut daraxtidan yasashda davom etmoqda. Tut-qanday daraxt o'zi? Tut-baraka daraxti degim keldi. Asosan tut daraxtining ko'proq navlari Xitoy mamlakatiga to'g'ri keladi. O'zbekiston xududida 20 ga yaqin tut navlari o'sadi. Ko'p navlari ipak qurti boqish uchun o'stiriladi. Shotut kabi dorivor navlari ham mavjud. Tutning mevasi inson sog'lig'i uchun shifobaxsh hisoblanadi. Uning biror tana a'zosi, yoki mevasi bekorga chiqit bo'lmaydi, ildizidan bargigacha koni foyda. Tut daraxtining qurigan tanasidan soz yasalar ekan, uning bilim va ko'nikmalari qanday?

Tekis o'sgan tut daraxti tanasi kesib olinadi va tanlagan sozining qozon qismi uchun kerakli o'lchamda aralab, po'sti, qabig'i, putoqlari olib tashlanadi. Bir xil haroratli honada tekis taxlangan holda saqlanadi. (ayrim ustalar tekis taxlab, osib qo'yadi, ayrimlari ko'mib saqlashadi, yana kimdir g'o'laning ikki tomoniga yorilib ketmasligi uchun kraska surtib qo'yishadi).

Saqlangan materialimiz qancha uzoq saqlansa, (kamida o'n yil) yorilmay qurisa, undan yasalgan sozning jarangdorligi, barxit ovozi yanada yoqimli bo'ladi.

Tut boshqa daraxtlarga nisbatan o'yilishi oson kechadi.

Yog'ochdan yasaladigan sozlarning barchasini tutdan yasalgani barxit ovozi bilan, yoqimlili bilan va qurigan sari ovozini yanada ochilib borishi, yengillashib borishi o'z isbotini topgan.

Tut egiluvchan homashyo bo'lib, doira gardishi, dab gardishi, yoki dutor yasashda uni maxsus idishlarda qaynatiladi, yana maxsus qolip va uskunalarda egib, shakl berish mumkin. Doira gardishiga maxsus yupqalashtirilgan po'lat xalqachalar o'rnatilib chiqiladi. Doira chalinganda xalqachalarning ovozi doira ovozi bilan uyg'unlashadi.

Tut yog'och yelimlarni ham o'ziga yaxshi qabul qiladi. Shuning uchun doira qoplashda bo'zak, toy terisi, dafni qoplashda ko'proq echki terisi, ruboblar uchun baliq terisi, tor cholg'usi uchun ko'proq molning yurak pardalarini miq ishlatmasdan ham yopishtirish imkoni bo'ladi.

Avvallari sozlarning pardalarini boylash uchun, quritib eshilgan qo'yning achchiq ichaklaridan foydalanilgan. Xozirda yelim ip (jilka) urfga kirdi. Ruboblarda pardalarni belgilashda ko'proq mis simdan foydalanilmoqda. Tor, dutor, tanbur, rubob sozlarining dasta qismiga yong'oq va o'rik yog'ochlaridan foydalaniladi. Bir so'z bilan aytganda an'anaviy sozgarlik negizida zamonamizning sozgar ustalari yasayotgan sehrli cholg'u sozlarini tariflashga til ojiz. musiqa san'atini, ijro san'atini rivojida sozgar ustalarimizning mehnati beqiyos. Zamonamizda sozgarlikning jadal rivojiga o'zining katta hissasini qo'shgan Usta Usmon Zufarov dutor, tanbur, ud, afg'on rubobi, qoshg'ar rubobi, soz, g'ijjak, chang, surnay va boshqa cholg'ularni yasashda qator yangiliklar kiritdi. Ustaning yasagan cholg'ulari butun O'zbekiston bo'ylab keng tarqalgan. Mashhur sato cholg'u asbobi ham ustaning ixtirosi.

Avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ushbu hunarmandchilik san'atini hozirda otaning o'g'illari Zufarovlar sulolasi va shogirdlari davom ettirmoqdalar. An'anaviy hunarmandchilikning zalvorli sohasi bo'lmish sozgarlik- kelgusi avlodlarga ham yanada sayqallanib yetib borishiga ishonchimiz komil!

Foydalanilgan adabiyotlar: 1.American popular music. Larri Star & Christopher Waterman. Oxford Universite Press. Inc. 2007.

2.Avazbek Mallaboyev. Yakkaxon xonandalik. III-jild. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2011

3.Avazbek Mallaboyev. Yakkaxon xonandalik. II-jild. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2009

4.Avazbek Mallaboyev. Yakkaxon xonandalik. I-jild. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2009

5.Avazbek Maxmudov. Andijon san'ati fidoyilari. Andijon-2017

6.Aynisa Yuldasheva. Vokal. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2020

7.Abdug'opirova F. "Kognitiv faoliyatni rivojlantirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashning didaktik tizim". Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. 2022. Namangan. 8-b.

8.Aliyev Asror Baxridinovich. Tojikiston umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarning musiqiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish. 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi mutaxassisligi bo'yicha Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Dushanbe – 2020

A 30

Amir Temur jaxon tarixida / Mas'ul muxarrir:X-Karomatov. Mualliflar jamoasi: S.Saiddosimov (raxbar), A.Axmedov, B.Axmedov va bopm. Tuldirnlgan va kayta ishlangan ikkinchi nashri. — T.: □Shark□.2001.-304 6.Sarlavxada: YUNESKO.

BBK 63.3(5U) c □Shark□ nashriyot-matbaa aksnyadorl .Bosh taxririya, 2001

MODERN METHODS FOR TEACHING VOCABULARY USING TECHNOLOGY

*The Uzbekistan State University of World Languages
EFL instructor, Department of Integrated English language teaching course -2
Eshankulova Lola Sayfullayevna*

Annotation; This article explores contemporary techniques for teaching vocabulary that leverage digital tools and technologies. It highlights methods such as digital flashcards with spaced repetition, gamified language learning apps, and immersive experiences with augmented and virtual reality. It also discusses the use of interactive online platforms, speech recognition for pronunciation practice, social media for authentic language exposure, and AI-driven tools for personalized learning. By integrating these modern methods, educators can create more engaging, effective, and customized vocabulary learning experiences that cater to diverse learner needs in today's digital age.

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные методы преподавания лексики с использованием цифровых инструментов и технологий. Особое внимание уделяется таким методам, как цифровые карточки с интервальным повторением, игровые приложения для изучения языков и погружающие технологии дополненной и виртуальной реальности. Обсуждается также использование интерактивных онлайн-платформ, распознавания речи для практики произношения, социальных сетей для аутентичного языкового погружения и ИИ-инструментов для персонализированного обучения. Интеграция этих современных методов позволяет педагогам создавать более увлекательные, эффективные и индивидуализированные уроки по изучению лексики, удовлетворяющие разнообразные потребности учащихся в цифровую эпоху.

Annatatsiya: Ushbu maqolada lugʻat oʻrgatishda zamonaviy raqamli vositalar va texnologiyalardan foydalanish usullari yoritiladi. Unda intervalli takrorlash tizimiga ega raqamli kartochkalar, gamifikatsiyalangan til oʻrgatish ilovalari, shuningdek, kengaytirilgan va virtual reallik yordamida chuqur oʻzlashtirish tajribalari kabi usullar koʻrib chiqiladi. Shuningdek, interaktiv onlayn platformalardan foydalanish, talaffuzni mashq qilish uchun nutqni aniqlash texnologiyasi, haqiqiy til muhiti uchun ijtimoiy tarmoqlar va shaxsiylashtirilgan oʻrganish uchun sunʼiy intellekt yordamida ishlab chiqilgan vositalar haqida ham soʻz boradi. Ushbu zamonaviy usullarni integratsiya qilish orqali pedagoglar oʻquvchilarning raqamli davr ehtiyojlariga mos keluvchi yanada qiziqarli, samarali va moslashtirilgan lugʻat oʻrgatish tajribalarini yaratishlari mumkin.

In the digital age, the approach to teaching vocabulary has evolved, offering educators numerous modern methods that make learning more interactive, personalized, and effective. Below is an overview of contemporary techniques that harness technology to enhance vocabulary learning.

1. Digital Flashcards and Spaced Repetition Systems

Digital flashcard applications, such as Anki, Quizlet, and Memrise, are some of the most popular tools for vocabulary learning. These platforms incorporate spaced repetition algorithms, which are designed to present words just before a learner is likely to forget them. This timing aids in long-term retention, and the interactive nature of digital flashcards makes studying more engaging. Many of these tools also allow users to include images, audio, and

example sentences, which provide context and support comprehension.

2. Gamification and Mobile Apps

Gamified learning apps, such as Duolingo and Drops, turn vocabulary learning into a game-like experience, often with levels, rewards, and interactive challenges. By introducing game mechanics, students become more motivated and engaged, reducing the perceived difficulty of learning new words. Mobile accessibility allows students to practice vocabulary anytime, making learning part of their daily routine.

3. Augmented Reality (AR) and Virtual Reality (VR)

AR and VR technologies create immersive environments for language learning, helping students engage with new words in context. For example, using AR applications like Google Lens, students can interact with real-world objects and get instant translations or definitions. VR environments can simulate foreign contexts (like a grocery store or a travel scenario), where students learn vocabulary relevant to specific situations. These experiences make vocabulary learning more memorable and practical.

4. Interactive Online Platforms and Digital Classrooms

Learning Management Systems (LMS) like Google Classroom, Moodle, or Edmodo allow teachers to create vocabulary lists, quizzes, and assignments tailored to their students' needs. Teachers can track progress, give instant feedback, and adjust lessons according to the students' performance. Additionally, online collaboration tools enable students to work together on vocabulary exercises, which fosters communication and helps reinforce new vocabulary.

5. Speech Recognition and Pronunciation Tools

Pronunciation plays a crucial role in vocabulary retention and understanding. With tools like Google Translate or speech recognition applications, students can practice saying words aloud and receive feedback on pronunciation accuracy. These tools also help students differentiate similar-sounding words, which improves listening skills and overall comprehension.

6. Social Media and Content-Based Learning

Platforms like YouTube, Instagram, and Twitter can be powerful tools for vocabulary learning. Teachers can assign students to follow specific accounts, watch videos, or read articles that contain targeted vocabulary. Content-based learning using social media keeps students engaged with real-life, authentic language examples, which often include current slang or idiomatic expressions that might not appear in textbooks.

7. AI-Powered Language Tools

AI tools, such as chatbots and language models, provide instant answers to students' questions, enabling independent learning. These tools can offer tailored vocabulary exercises, quizzes, and explanations that adapt to the learner's progress. Some AI-powered platforms, like Grammarly or Reverso, can suggest vocabulary alternatives or help students understand word usage in context.

8. Collaborative Digital Storytelling and Creative Writing

Applications like Storybird, Padlet, or Google Docs allow students to co-create stories or digital word maps. This method not only reinforces vocabulary but also enhances creativity and contextual understanding. Students learn how to use words in a coherent narrative, thereby internalizing meaning and usage more effectively.

Conclusion

Modern technology provides a vast array of resources for teaching vocabulary, enabling students to learn in a more engaging, personalized, and effective manner. By incorporating

tools like digital flashcards, gamified apps, AR and VR, AI-powered platforms, and interactive classrooms, educators can foster a deeper and more enjoyable vocabulary-learning experience.

Literature

1. Chun, D. M. (2016). *Language Learning and Technology: A Critical Introduction*. New York: Routledge.
2. Godwin-Jones, R. (2017). Smartphones and Language Learning. *Language Learning & Technology*, 21(2), 3-17.
3. Wang, S., & Higgins, M. (2006). Limitations of Mobile Phone Learning. *The International Review of Research in Open and Distributed Learning*, 7(2).

TABIAT VA KOINOTGA OID BILIM VA UFR-ODATLARNING INSONLAR HAYOTIDAGI ROLI

JO'RAYEV Abduqahhor Abdug'opirovich

*Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy
meros ilmiy tadqiqot insituti kichik ilmiy xodimi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada nomoddiy madaniy merosning tabiat, koinot bilan bog'liq bilim va ko'nikmalari tahlil qilinib, insonlar hayotidagi roli ko'rsatilib, ularning kelib chiqishi, tarixi, qo'llanilishi va bugungi kundagi ahamiyati haqida batafsil ma'lumot berilib o'tilgan. Ularni muhofaza qilish uchun barkamol avlod ongiga singdirish orqali saqlab qolish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *Nomoddiy, tabiat, koinot, bilim, ko'nikma, urf-odat, marosim, dehqonchilik, chorvachilik, turmush tazi.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются знания и навыки нематериального культурного наследия, связанного с природой и Вселенной, показывается его роль в жизни людей, а также дается подробная информация об их происхождении, истории, использовании и значении сегодня. Считается, что чтобы защитить их, их нужно сохранить, внедрив в сознание следующего поколения.

Ключевые слова: *необычное, природа, мироздание, знание, мастерство, традиция, ритуал, земледелие, домашний скот, образ жизни.*

ABSTRACT

This article analyzes the knowledge and skills of intangible cultural heritage related to nature and the universe, shows its role in people's lives, and provides detailed information about their origin, history, use and importance today. In order to protect them, it is thought to preserve them by inculcating them into the minds of the next generation

Keywords: *Unusual, nature, universe, knowledge, skill, tradition, ritual, farming, livestock, lifestyle.*

Tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar deganda biz tabiat va koinotga bog'liq hodisa jarayonlarning namoyish bo'lish holati ya'ni ular orqali yuzaga keladigan insonlar ijtimoiy turmush tarzini rivojlanishiga ma'lum darajada xissa qo'sha oladigan urf-odat va marosimlarning turlariga aytiladi. Jumladan, an'anaviy xalq taqvimlari kunning botishiga qarab kelgusi kunning qanday kelishini tahmin qilish, oyning tutulishiga qarab keying kunning ob havosi qanday kelishini haqida fikr bildirish, hayvonlar harakati orqali sodir bo'ladigan voqealarni bashorat qilish, quduq qazish o'rni yoki imorat qurish joyini aniqlash, milliy sarataroshlik, an'anaviy tabobat, imorat sozlik, miroblik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar, pazandachilik san'ati kabilarni kiritish mumkin.

O'zbek xalqi qadim zamonlardan dehqonchilik, bog'bonlik, chorvachilik bilan shug'ullangan. Dehqonchilik ham, chorvachilik ham, tabiat va koinot inijliklari bilan bog'liqdir. Erta bahordan kech kuzgacha dehqon dalada mehnat qiladi. Qishda esa, erga iloji boricha ko'proq

nam singdirish choralarini ko'radi. Chorvador esa yil davomida boqish, semirtirish, ko'paytirish bilan band bo'ladi. Binobarin yil fasllarining qanday kelishi dehqon xirmoniga baraka beradi. Chorvador mehnati samarasini ro'yobga chiqaradi. Shuning uchun otalar va momolar yomg'ir chaqirish, yomg'ir to'xtatish, shamol chaqirish va to'xtatish tajribasini ipidan ignasigacha avlodga meros qilib qoldirishga odatlangan, natijada o'nlab marosimlar yuzaga kelgan. Marosimlar esa, albatta so'zning sirli tas'iri bilan yashagan va amalga oshirilgan.

Epik mavsumiy marosim folklori asosini yil fasllarida o'tkaziladigan marosimlar tashkil etadi. Bugungi kun mavsumiy marosimlari choy tutish, shoxmoylash, navro'z, yomg'ir chaqirish, darveshona. Yozgi marosimlar: choymomo, suv sayli, tut sayli, qum sayli. Kuzgi marosimlar: mehrjon, qovun sayli, uzum sayli, anor va anjir sayli, hosil to'yi. Qishgi marosimlar: birinchi qor, yaldo kechasi va qishki chilla, gap-gashtak. Shu o'rinda yaldo kechasi marosimiga izoh berib o'tamiz. Bu marosim Yaldo kechasi yoki „chilla“ kechasi deb atalib, Eronning qadimiy bayramlaridan biridir. Bu bayramda, yilning eng uzun tunining o'tishi va Shimoliy yarimsharda kunlarning uzayishi nishonladi. Yaldo deb, kuzning oxirgi kunidagi quyosh botishidan boshlab (21-dekabr) keyingi kundagi quyosh chiqqunga qadar (qishning birinchi kuni) oralig'idagi vaqtga aytiladi. Eronlik oilalar Yaldo kechasida, odatda kechki ovqat tayyorlashadi va shuningdek turli xil mevalarni va birgalikda iste'mol qiladilar. Ovqatlar iste'molidan keyin, Hofiz devoni bilan folbinlik ommalashgan. Bu kechada o'tkaziladigan bayram va chilla, qadimiy an'analardan biridir. Uzoq o'tmishdagi qishloq xo'jaligi turmush tarzining asosini tashkil qilgan odamlar, tajriba orttirish va vaqt o'tishi bilan fasllarning o'zgarishi, kun va tunning uzunligi va qisqaligi tufayli o'z ishi va faoliyatlarini moslashtira oldilar. Ular birinchi kundan kunlar uzayishini bilishadi va natijada o'sha kunlar, yorug'lik va quyosh nuridan ko'proq foydalana olishadi. Yorug'lik va quyosh nuri yaxshilik va muvafaqqiyat ramzi va qorong'ulik, zulmat kechasi bilan jang va to'qnashuvda degan ishonch yaratilgan edi. Bundan tashqari, xalqimizda qishning so'ngi haftasini ayamajuz deyish odati bor. Bu ayyom va ajuz so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan birikma bo'lib, arablarda ayyom – kun va ajuz – qari gapi, kampir ma'nosini anglatadi. Qishning so'ngi haftasi deganda esa, fevral oyining oxirgi to'rt kuni va bahorning ilk uch kuni nazarda tutiladi. Bu kunlar juda sovuq bo'lib, ko'klamning ko'rkiga mahliyo bo'lgan va ehtiyotsizlik qilgan barcha narsaga talofat etkazadi. Shuning uchun ham xalqimiz orasida Qishning bir kuni ham, qish degan naql yuradi.

Yerga ishlov berishni ham obi-tobiga kelgach boshlaydi. Ming yillik dehqonchilik madaniyati unga anashu haqiqatlarni tarkib toptirgan. Vaholanki, qadimda kunlar isib ketganiyu, maysalar sabza bo'lganida bodom va ayrim sabrsiz daraxtlarning gullaganiga aldanib odamlar dala ishlari kundaligini boshlab yuborganlar. Chorvani yaylovga yoyganlar. Kekslar bunga hali vaqt borligini aytib ogohlantirsalarda, quloq solishmagan. Oqibatda sovuq kunlar qaytib, hamma narsani kunfayakun qilgan. Qari bilganni pari bilmas degan naql ham o'sha paytdan iste'molga kirgan. Ko'pni ko'rgan, katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan kishilar bilan kengashish an'anasi, yoki qishning oxirgi haftasini Ayamajuz – qariya kunlari deyilishi ham shundan bo'lsa ajab emas. Endi yana bir narsaga e'tiboringizni qaratsak, ayamajuz nega eti kun – bir haftadan iborat. ba'zi bir rivoyatlarda qish fasli fevral oyining sal dasti qisqaligidan narcha yumushlarini batamom bajara olmagan bois, ukasi bahordan uch kunni so'rab olgan deyishadi. Balki boshqa bir sababi ham bo'lishi mumkin. Masalan, Allohning bu dunyoni yaratishi ham yrtti kunga nisbat beriladi, binobarin bu kunlar ayyomi husum deb ham nomlanadi.

Qur'oni Karimning (haqqo surasi 7-oyatida) Samud Od davrini etti tun va sakkiz kun davomida tinimsiz davom etgan asov shamol bilan halok qilgani aytilgan.

Dehqonchilikka oid yana yozgi to'qson chilla, qishki to'qson chilla, hut-yut deb nomlanadigan o'nlab udumli muddatlar ham ma'lum darajada marosim ko'rinishlariga ega. Masalan, choy, tutish marosimida muayyan hududda yashaydigan aholi ariqlarni tozalash, dalaga suv chiqarishni osonlashtirish uchun hasharga chiqadi. Shoxmoylar marosimi bahorda

qo'shchiqarish bilan bog'liq bolgan. Dehqonlar yil davomida ekin-tekin mo'l hosil berishiga umid qilib birinchi qo'sh haydagan ho'kiz shoxiga zig'ir moyi surganlar. Marosimlar dehqonchilik tipi bobodehqondan mo'l hosil bo'lishini tilab niyat qilishgan. yomg'ir chaqirish bilan bog'liq. Sust xotin marosimini asosan bahorda yomg'ir yog'magan paytlarda o'tkazilgan. Bu marosim bazi bir joylarda ayollar, bazi joylarda esa erkaklar ishtirokida o'tkazilgan. Yuqorida keltirib o'tilgan marosimlar tabiat bilan bog'liq bo'lib, ular xalq hayotining tarkibiy qismi sifatida milliy urf-odatlar singari qadrlanadi. Ushbu marosimlar xalq hayoti, turmush tarzini yaxshilash va o'zgarishiga qisman ta'sir ko'rsatib, quyidagi omillarni yuzaga keltiradi. Masalan, har bir dehqon ota-bobolaridan o'rgangan yuqoridagi tabiat va koinot bilan bog'liq urf-odat va ma'rosimlarni o'z hayotida qo'llaydi va ma'lum darajada natijaga erishadi.

Yana bir tabiat bilan bog'liq bilimlardan biri chorvachilik haqida bo'lib, shu soha bilan shug'ullanadiganlar ham o'z faoliyati davomida urf-odat va ma'rosimlarni to'g'ri tashkil qilish orqali o'zining farzandlariga ushbu kasbini meros qilib qoldirib kelgan.

Xususan, tabobat borasida giyoh va o'simliklardan foydalanish jarayonini o'zlashtirganlar bilimlari orqali o'zining yon atrofidagi insonlarga katta yordam ko'rsata oladi.

Bu marosimlardan tashqari Xalq tabobati bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarni ham keltirib o'tish joizdir. Qir, adir va dalalarimizda tabiiy holda o'sadigan giyohlarimiz ham tabiatning bizga bergan eng yuksak in'omidir. Zeroki, tibbiyotda inson salomatligi uchun foydalaniladigan dorivor o'simliklar babaho boyligimiz, madaniy, merosimiz hisoblanadi. Quyida bazilarini keltirib o'tamiz: Xalq tabobati bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirgan har bir inson ijtimoiy turmush tarzida qo'llashi natijasida uzoq umr, farovon hayot omillarini o'zi uchun va yaqinlariga ko'mak berishi asosida yuqori samaradorlikka erishadi. Jumladan, o'simliklardan aloe, anjabor va beshbarg, mevalardan anjir, behi kabilarning foydali jihatlari izohlaymiz. Aloening xalq tabobatida foydalanilishi: aloe bargidan va uning shirasidan turli kasalliklarni: oshqozon va o'n ikki barmoq ichak yaralari, o'pka silini va boshqalarni davolashda foydalaniladi. O'pka silini davolashda aloe bargini yoki uning shirasini asal va cho'chqaning ichki yog'I bilan aralashtirib pishiriladi va bemorga iste'mol qilishga beriladi.

Anjabor o'simligining xalq tabobatida qo'llanilishi: o'simlik er ostki qismidan tayyorlangan qaynatmani me'da ichak kasalliklarida, ayniqsa, ich ketganda hamda qon to'xtatuvchi don sifatida iste'mol qilish buyuriladi.

Beshbarmoq o'simligining xalq tabobatida qo'llanilish: Ildizpoya yoki o'simlikning er ustki qismidan tayyorlangan damlama yoki qaynatma qon to'xtatuvchi dori sifatida hamda, og'iz og'riganda uni chayishda, me'da ichak kasalliklarida ishlatiladi.

Anjir mevasining xalq tabobatida qo'llanilishi: Anjir mevasi va undan tayyorlangan damlama yumshatuvchi dori sifatida yo'tal yoki ko'kyo'tal kasalliklariga davo hisoblanadi. Sut bilan anjirni qaynatib och qoringa iste'mol qilinishi ushbu kasalga shifo bo'la oladi. Bulardan tashqari bir matoni (lattani) mevaning issiq damlamasida namlab yaraga qo'yiladi. Shamollash kasalliklarida esa, tomoqni chayish uchun ishlatiladi. Yana bir mevalardan biri behi qaynatmasi va pishirilgan meva me'da ichak kasalliklarida ovqat hazm bo'lishini yaxshilaydi. Jigar, qon tupurish kasalliklarini davolashda hamda qurishiga qarshi ta'sir qiluvchi, qon to'xtatuvchi dori sifatida qo'llaniladi. Urug'idan tayyorlangan damlama qon tupurishni davolaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, tabiat va koinot bilan bog'liq bilimlar va ko'nikmalar bir necha asrlardan buyon xalqimiz orasida shakllanib kelayotgani bois uning turmush tarziga aylanib ketgan ijtimoiylashuviga ma'lum darajada hayotiy farovonlikka erishishiga, mehr oqibatli bo'lishiga, tabiatni sevishiga chorlashi bilan muhim omil hisoblanadi. Bu esa, ularni muhofaza qilish orqali barkamol avlod qalbiga singdirish naqadar dolzarb masal ekanligini anglatadi.

Xalqimizning tabiat bilan bog'liq qadriyatlarini bilish, ularga chuqur e'tibor bilan qarash va e'zozlash har bir inson uchun ham qarz, ham farzdir. Chunki tabiat sog'lom-insom sig'lom, tabiat dardli-inson nosog'lom. Tabiat farzandi bo'laturib, uning o'ziga hos madaniy ma'rifiy qadriyatlarning qadriga etmaslik insoniylikdan emas. o'zini madaniyatli va ma'rifatli deb bilgan har bir kishi yosh-keksaligi, ayol-erkakligi va kasb-amalidan qat'iy nazar yon atrofimi o'rab turgan muhit to'rt unsur: er, suv,havo, tuproq shuningdek o't-giyohlar, dov-daraxtlar, katta-kichik, jonli-jonsiz narsalar haqida qayg'urishi, jon kuydurishi, tabiat chiroyiga chiroy, tarovatiga tarovat qo'shishni vijdoniy burch, iymon, e'tiqod ishi deb bilmog'I lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" O'zbekiston Toshkent 2022
2. O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi Yangi O'zbekiston taraqqiyotida madaniy islohotlarni amalga oshirishning dolzarb masalalari mavzusidagi Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi materiallari to'plami Toshkent 2024

ХУЛҚИ ОҒИШГАН ХУЛҚ-АТВОР: ПСИХОЛОГИК ТАШХИС МУАММОЛАРИ

Ганжи Бердиев (доцент, психология фанлари номзоди)

Б.У. Ибрагимходжаев

Алфраганус Университети доценти,

тиббиёт фанлари номзоди

Аннотация. Мамлакатимизда ёшларнинг маънавий, руҳий ва ахлоқий баркамол ўсиши ва стратегик вазифа ҳисобланади. Глобализм даврида миллати, маданиятимизга ёт бўлган ғоялар, одатлар кириб келиши кучайди. Жиноятчиликнинг, жиноятга мойилликнинг ўсмирлар ва ёшлар орасида ошиши жамият ва давлатнинг тараққиётига салбий таъсир етиши мумкин. Шу сабабли ижтимоий хатар гуруҳига қиравчилар психологик диагностикаси долзарб вазифа ҳисобланади.

Калит сўзлар. Руҳий саломатлик. Ёшлар тарбияси- стратегик вазифа. “Оммавий маданият”. Ёт ғоялар. Жиноятга мойиллик. Хатар гуруҳи. Ахлоқий бузуқлик. Психологик диагностика.

ОТКЛОНЕННОЕ ПОВЕДЕНИЕ: ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ.

Ганжи Бердиев (доцент, кандидат психологических наук)

Б.У. Ибрагимходжаев (доцент Университета Алфраганус,

кандидат медицинских наук)

Аннотация. В нашей стране моральное, духовно-этическое развитие молодежи является стратегической задачей. В эпоху глобализации возросло внедрение чуждых нашей нации и культуре идей и обычаев. Рост преступности и криминальных тенденций среди подростков и молодежи может оказать негативное влияние на развитие общества и государства. Поэтому психологическая диагностика группы социального риска является актуальной задачей.

Ключевые слова. Душевное здоровье. Образование молодежи является стратегической задачей. «Популярная культура». Иностранные идеи. Склонность к преступлению. Группа риска. Развращенность. Психологический диагноз

DEVIAANT BEHAVIOR: PROBLEMS

OF PSYCHOLOGICAL DIAGNOSTICS.

Ganji Berdiev (Associate Professor, Candidate of Psychological Sciences)

B. U. Ibragimkhodjaev (Associate Professor Alfraganus University,

Candidate of Medical Sciences)

Annotation. In our country, the moral, spiritual and ethical development of young people is a strategic task. In the era of globalization, the introduction of ideas and customs alien to our nation

and culture has increased. The increase in criminality and criminal tendencies among teenagers and young people can have a negative impact on the development of society and the state. Therefore, psychological diagnosis of the social risk group is an urgent task.

Keywords. Mental health. Youth education is a strategic task. “Popular Culture”. Foreign ideas. Propensity for crime. Risk group. Moral turpitude. Psychological diagnosis.

Президентимиз Ш. М. Мирзиёев 2016 йилда: “Ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятига эга бўлиб, дунё микёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳага бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, бахтли бўлиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор кучи ва имкониятларини сафарбар этамиз”, деб бу соҳадаги ислохотларга туртки берган эди. Давлат раҳбарининг ёшлар сиёсатида катта эътиборига сабаб юритишимизга, миллатимизга ёт бўлган турли оқимлар “оммавий маданият”, глобаллашув даврида хатарли ахлоқий бузуқликларнинг кириб келиши кучайди.

Юрт бошимизнинг келтирган рақамлари ҳеч кимни бефарқ қолдирмайди: Ёшлар тарбиясига етарли эътибор қаратилмагани оқибатида ўтган йили (2016) 18 дан 30 ёшгача бўлган фуқаролар томонидан жами 31 минг 933 та жиноят содир этилган (Ш. М. Мирзиёев. “Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз”, 2016. 324 бет).

Афсуски бундай ҳолат ер юзидаги кўп давлатларга хос, айниқса ривожланган ва ривожланаётган давлатларда агрессия; терроризм; турли хавотирланиш; зўравонлик раҳмсизлик ва импульсив равишда қилинган жиноятлар сони бир неча баробар ошди.

Жиноятчилик ва хулқи оғишганларнинг ўсмирлар ва ёшлар орасида ўсиш анъанаси жамият ва давлат тараққиётига салбий таъсир этиши мумкин.

Шу сабабли психологлар, криминалистлар, педагоглар ва бошқа мутахассислар бу соҳада кенг изланишлар олиб бормоқдалар.

Биринчи навбатда ижтимоий ва ҳуқуқий хатар гуруҳига кирувчилар аниқлаб олиш керак тоифага қуйидагилар киради:

1. Ижтимоий муҳитдан бегоналашганлар;
2. Аномия (ижтимоий, ахлоқий ва бошқа нормалардан четга чиққанлар);
3. Ҳаётдан қониқмаганлар;
4. Ҳаётнинг мазмун ва маъносини йўқотганлар;
5. Ҳаётдан қониқмаганлар, ҳаётга бефарқлар;
6. Доимий ҳаётдан зерикувчилар;
7. Ҳаётнинг қадрини йўқотганлар;
8. Экзистенциал невроз;
9. Неоген невроз;
10. Фалсафий невроз;
11. Келажакка ишончнинг йўқолиши, бефарқлик;
12. Қадриятларнинг йўқлиги;
13. Маънавий қадриятлар йўқлиги оқибатида юзага келган касалликлар ва инқирозлар;
14. Аксиологик депрессия;
15. Ўзига ўлим тилаш. Тақдирга тан бериш;
